

BUXORO AMIRLIGIDA YER MUNOSABATLARI VA SOLIQ TIZIMI

Xurramov Nodirbek Ilhomovich

Toshkent davla Sharqshunoslik

Universiteti Sharq sevilizatsiyasi va Falsafa fakulteti Sharq

Mamlakatlari Tarixi yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19500530>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligida mavjud bo'lgan yer munosabatlari va soliq tizimining asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yer egaligining shakllari, jumladan amlok, mulk va vaqf yerlari, ularning boshqaruv mexanizmlari hamda dehqonlar va davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yoritib beriladi. Shuningdek, soliqlarning turlari, ularning yig'ilish tartibi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Maqola Buxoro amirligining agrar tizimi va fiskal siyosatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, yer munosabatlari, soliq tizimi, amlok yerlar, vaqf, mulk, xiroj, zakot, dehqonchilik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные особенности земельных отношений и налоговой системы Бухарского эмирата. В ходе исследования анализируются формы землевладения, такие как амляк, мулк и вакуфные земли, а также механизмы их управления и экономические взаимоотношения между государством и земледельцами.

Особое внимание уделяется видам налогов, порядку их взимания и их влиянию на социально-экономическую жизнь общества. Статья способствует более глубокому пониманию аграрной системы и фискальной политики Бухарского эмирата.

Ключевые слова: Бухарский эмират, земельные отношения, налоговая система, амляк, вакуф, мулк, харадж, закят, земледелие.

Annotation. This article analyzes the main features of land relations and the tax system in the Bukhara Emirate. The study examines forms of land ownership such as amlak, private (mulk), and waqf lands, as well as their management mechanisms and the economic relations between the state and peasants. Particular attention is paid to the types of taxes, methods of their collection, and their impact on socio-economic life. The article contributes to a deeper understanding of the agrarian system and fiscal policy of the Bukhara Emirate.

Keywords: Bukhara Emirate, land relations, tax system, amlak lands, waqf, private property, kharaj, zakat, agriculture.

Buxoro xonligi O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, xususan, yeregaligi tizimi tashkil qilgan. Yer munosabatlari xonlikda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lgan. Ashtarxoniyalar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqarib ketdi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Farg'ona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsada, Abulfayzxon davriga kelib Xiva (viloyati) va Qo'qon xonliklari alohida davlat edi.

Ashtarxoniylar sulolasi Jo'jixon avlodidan bo'lib, XIV asrning oxirlaridan boshlab Ashtarxon va uning atrofidagi hududlarga hokimlik qilgan. 1556-yilda Rossiya Astraxanni bosib olgach, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oilasi va qarindoshlari bilan Buxoroga ko'chib keladi. Buxoro xoni Iskandarxon ularni hurmat bilan kutib oladi va o'z qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga beradi. Bu nikohdan Dinmuhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad ismli uch o'g'il dunyoga keladi. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuqori lavozimlarga ega bo'lib, viloyatlar hokimi sifatida faoliyat yuritadilar. 1601-yilda Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tiradi va shu bilan Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Bu sulol 175 yil davomida mamlakatni boshqargan. Boqi Muhammad boshqaruv davrida davlat sarhadlarini Buxoro xonligi O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, xususan, yeregaligi tizimi tashkil qilgan. Yer munosabatlari xonlikda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lgan.[1]

Ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqarib ketdi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Farg'ona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsada, Abulfayzxon davriga kelib Xiva (viloyati) va Qo'qon xonliklari alohida davlat edi. Ashtarxoniylar sulolasi Jo'jixon avlodidan bo'lib, XIV asrning oxirlaridan boshlab Ashtarxon va uning atrofidagi hududlarga hokimlik qilgan. 1556-yilda Rossiya Astraxanni bosib olgach, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxo oilasi va qarindoshlari bilan Buxoroga ko'chib keladi. Buxoro xoni Iskandarxon ularni hurmat bilan kutib oladi va o'z qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga beradi. Bu nikohdan Dinmuhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad ismli uch o'g'il dunyoga keladi. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuqori lavozimlarga ega bo'lib, viloyatlar hokimi sifatida faoliyat yuritadilar. 1601-yilda Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tiradi va shu bilan Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Bu sulola 175 yil davomida mamlakatni boshqargan.[2]

Rossiya imperiyasi Turkistonni egallaganidan keyin esa bu tizimga o'zgarishlar kiritildi: amlok yerlar to'liq, vaqf va mulk yerlar esa qisman imperiya mulkiga aylantirildi.

Ya'ni, Buxoro xonligida yer egaligi quyidagi shakllarda mavjud edi

- Mulki devoniy —davlatga tegishli yerlar bo'lib, undan olinadigan daromad xazinaga tushardi.

- Mulki xususiy —boylar, amaldorlar, sarkardalar kabi shaxslarga tegishli yerlar.

- Vaqf yerlar —masjid, madrasalar kabi diniy muassasalarning ehtiyojlari uchun ajratilgan, sotilishi yoki meros qilib berilishi mumkin bo'lmagan yerlar. Buxoro amirligining iqtisodiy siyosatini, asosan, yerga egalik munosabatlari tashkil etadi. Daromad manbai ham o'sha davrda mavjud boshqa xonliklar —Xiva va Qo'qon xonliklari singari yerdan keladigan soliqlardir. Har bir yer egaligi shakli o'ziga xos soliq va majburiyatlarga ega edi. Davlat yerlaridan foydalanilgan taqdirda xiroj, baj, salg'u kabi soliqlar olinardi. Yer egalari esa o'z navbatida ijarachilarga yer berib, ulardan hosilning ma'lum qismini olgan. Dehqonlar ko'pincha o'zlariga tegishli bo'lmagan yerda ishlashga majbur bo'lgan. Ular yeregalariga yillik hosilning muayyan qismini topshirish, ayrim hollarda esa bepul mehnat qilish (begar) majburiyatida bo'lganlar.

Yerga egalik qilish darajasi jamiyatda shaxsning mavqeini belgilovchi asosiy omil hisoblangan. Ko'p yerga ega bo'lgan shaxslar ko'proq boylik, obro' va hokimiyatga ega bo'lganlar. Bu holat jamiyatda tabaqalanishning kuchayishiga olib kelgan.[3]

Amir Said Olimxon hukmronligi davrida "Yosh buxoroliklar"ning talablari asosida birqator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, mahalliy soliqlar 10 foizgacha qisqartirilgan, harbiylar oylik haqi oshirilgan (piyoda xizmatchilarga oyida 3-9 rublgacha, otliq qo'shinlarga 6-20 rublgacha), harbiy xizmatdan ozod etilgan yoshi ulug' kishilarga oyida 3 rublgacha nafaqa tayinlangan. Qozilarga sud jarayonida taraflardan aniq belgilangan miqdordagi boj haqi undirish buyurilgan. Rais – shahar boshlig'ining xarajatlari qisqartiriladi. Muqaddas erlardan foyda olishga ruxsat berilgan. 3Buxoro amirligida soliq tizimini boshqarishda muayyan toifadagi davlat mulozimlarigina emas, balki, amirlik mulozimlarining deyarli barchasi ishtirok etganlar.

Ular o'zlarining birlamchi xizmat vazifalarini bajarish bilan birga, soliq tizimida ham o'zlariga topshirilgan vazifa-larni bajarganlar. Muftiy mirza va shogirdpeshalar hamrohligida ko'rsatilgan hududga borgan hamda amin, oqsoqol va bir necha aholi vakillari bilan birgalikda ushbu hududdagi yerning tanobi va ekilgan ekin turini aniqlab tanob daftariga kiritgan. Zakotchilar yilda bir marta zakot olinishi kerak bo'lgan mulkdan zakot yig'ish bilanshug'ullanganlar. Ular o'z xizmat vazifalarini bajarishda hokimlarga bo'ysunmaganlar va mustaqil ish olib borganlar. Zakotchilarning bittasi faqat shaharda turgan va keltirilgan tovarlardan zakot olgan bo'lsa, ikkinchisi viloyat bo'ylab yurib, chorva egalaridan zakot yiqqan. Amlokdorlar hokim tomonidan yorliq olib tayinlangan va tumanlardama'muriy hokimiyatni tashkil qilgan. Ularning dorug'a deb nomlanuvchi bir necha yordamchilari bo'lib, ularning vazifasi g'alla yig'inida g'alla uyumini muhrlashdan iborat bo'lgan.[4]

Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar joriy etilgan bo'lib, aholi bularni to'lashga majbur edi. Aholidan yig'ib olinadigan asosiy soliq turlari juda ko'p bo'lganligi quyidagi ro'yxatdan yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Xiroj-ekin erlaridan olinadigan soliq, bunga ushr ham qo'shilgan.
2. Boj- savdogarlardan olinadigan soliq.
3. Alafpuli-beda ekilgan er va chorva emishidan olingan.
4. Bog' puli-uzumzorlardan olinadigan soliq.
5. Chorbog' puli-mevali bog'lardan olinadigan soliq.
6. Ajnos puli-poliz va sabzavot ekinlaridan olinagan.
7. Qovun puli-qovun va tarvuzlardan olinadigan soliq.
8. Uskuna puli-ko'chatlar o'tqazish va daraxt payvandlari uchun olinadigan soliq.
9. Sanjit puli-sanjit daraxtlaridan olinadigan to'lov.
10. Cho'p puli-qurilish ashyolari va o'tindan olinadigan soliq.
11. Barg puli-ipakchilikdan olinadigan soliq.
12. Qo'sh puli-juft qo'sh ho'kizlaridan olinadigan to'lov.
13. Yaksara puli-bitta haydov ho'kizidan olinadigan to'lov.
14. Zakoti chakana-chorvadan olinadigan soliq.
15. Aminona-suvdan foydalanganligi va bozorda sotiladigan mahsulotlardan olinadigan soliq.
16. Tagjoy puli-bozordagi sotuvchilardan olingan.
17. Chuil-harbiy soliq turi.

Sotuvchi biror tovarni sotganidan so'ng uning qo'liga zimmasidan zakotto'lash sharti soqit bo'lganini bildiruvchi hujjat –xati ma'of berilgan. Molini sotgan odam zakot yig'uvchilar kelgan vaqtda qo'lidagi ma'of xatini ko'rsatgan va zakot to'lamagan. Amirlikdagi soliq amaliyotiga ko'ra, tijorat daromadlaridan olinadigan zakotlar zakoti tijorati deb yuritilgan va mahsulot turiga qarab nomlangan. Gazlama o'ramlari toy deb nomlangan va bozorlarda sotish uchun keltirilgan gazlamalarning toyiga qarab zakot olingani uchun toy puli deyilgan. Hujjatdagi raqamlarga ko'ra, turli gazlama toylaridan turli miqdorda zakot olingan, chunki bu miqdor gazlamaning bahosidan kelib chiqib belgilangan.[5]

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bulsak, Buxoro amirligida yer munosabatlari va soliq tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yer egaligi shakllari (amlok, mulk, va vaqf yerlar) boshqaruvning turli mexanizmlarini yaratgan va dehqonlarning mehnat faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynagan.

Soliq tizimi esa davlat daromadlarini ta'minlash bilan birga, aholining ijtimoiy vaziyatiga ham ta'sir qilgan, xususan, xiroj, zakot va boshqa soliq turlari orqali dehqonchilikni rag'batlantirish va jamiyatdagi muvozanatni saqlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, yer va soliq munosabatlarining o'rganilishi Buxoro amirligining agrar siyosati va fiskal tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Семенов А.А. Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего
2. Бухарского Ханства. // Труды САГУ, Серия II. Вып. I. – Т.: - 1929; Очерк устройсва
3. центрального админстративного управления Бухарского Ханства позднейшего
4. времени. // Труды АН ТаджССР. Том XXV. 1954.
5. Мирзаев К.М. Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарского
6. Ханстве. Изд Ан УзССР. – Т., 1954.
7. То'raev Н.Н. Вухоро тарихи [Matn]: o'quv qo'llanma / Halim To'raev. - Вухоро: "Sadriddin Salim Вухорiy" Durdon nashriyoti, 2020. - 320 b
8. Ахмад Дониш. История мангытской династии. –Душанбе:1967.–Б.153.ШодиевЖ.М.
9. ШодиевЖ.М. Бухороамирлигидавлатчилигинингривожланиши. –Тошкент:2010